



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**



Agronomiya fakulteti «5620400-Qishloq
xo'jaligi ekinlari, urug'chiligi va seleksiyasi»
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

TO'RAYYeV G'IYOS ning

BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: "HIMOYALANGAN GRUNTDa YeTISHtIRILADIGAN
POMIDOR NAV VA DURAGAYLARINING HOSILDORLIGIGA
YeTISHtIRISN TEXNOLOGIYASINING TA'SIRI"**



Ilmiy rahbar, professor _____ I.T.Ergashev

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga tavsiya etildi
"Genetika, seleksiya va urug'chilik"
kafedra mudiri professor
_____ I. T. Ergashev
"_____" _____ 2014 yil
№ _____ sonli yig'ilishi

Agronomiya fakulteti dekani,
dosent _____ D.S.Normurodov
"_____" _____ 2014 yil

SAMARQAND-2014 y

MUNDARIJA

KIRISH	
1. Adabiyotlar sharxi.....	
1.1. Xalq xo'jaligidagi ahamiyati.....	
1.2. Yopiq gruntida yetishtiriladigan pomidor navlariga qo'yiladigan talablar va yetishtirish texnologiyasi.....	
1.3. Himoyalangan gruntida yetishtiriladigan pomidor seleksiyasining asosiy yo'nalishlari.....	
1.4. Seleksiya usullari.....	
2. TAJRIBA QISMI.....	
2. 1. Umumiy ma'lumotlar.....	
2.2. Iqlimi.....	
2.2. Tuproqlari.....	
3. TADQIQOTLAR MAQSADI, VAZIFASI VA USLUBLARI	
3.1. Tadqiqotlarning maqsadi.....	
3.2. Tadqiqotlarning uslubi.....	
4. TAJRIBA NATIJALARI.....	
4.1. Fenologik kuzatish va biometrik o'lchovlar natijalari.....	
4.2. Kuzgi – qishgi mavsumda o'rganilayotgan pomidor duragaylarining hosildorlik ko'rsatkichlariga turli ekish sxemalarida yetishtirishning ta'siri.....	
4.3. Kuzgi – qishgi mavsumda xar xil ekish sxemalarida pomidor duragaylarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi.....	
5. Hayot faoliyati xavfsizligi va atrof muxitni muxofaza qilish.....	
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga	

**bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan kelib
chiqadigan asosiy vazifalar.....**

XULOSALAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

ILOVALAR.....

KIRISH

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov qishloqda yashovchi axolining yashash sharoitlarini yaxshilashga katta e'tibor berib shunday degan edi: «Maqsad – qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirish, qishloqda yashayotgan halqimizning hayot darajasini ko'tarish, ular uchun munosib shart – sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lmog'i kerak».

Mamlakatimiz agrar siyosati qishloq xo'jaligi va qishloq infrastrukturasini barqaror rivojlantirish, ya'ni qishloqlarning ijtimoiy – iqtisodiy qiyofasini o'zgartirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi va samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qishloq aholisi bandligini ta'minlash va ularning turmush farovonligi darajasini ko'tarishga qaratilgan. Shu o'rinda axolini yilning barcha mavsumlarida yangi sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniga ega bo'lgan yopiq gruntga va unda yetishtiriladigan sabzavot ekinlari mahsulotlarini ko'paytirishga, sifatini yaxshilashga, mehnat unumdorligi oshirish, tannarxni pasaytirish va rentabellikni oshirish singari dolzarb masalalarga katta e'tibor berilib kelinmoqda. Himoyalangan grunt qishgi – baxorgi mavsumda sabzavotlar yetishtirishda muxim rol o'ynaydi. Oxirgi yillarda yopiq gruntga yetishtirishga katta ahamiyat berildi. Ayniqsa sabzavotlarning kam xajmli texnologiyadan foydalanib yetishtirilishi yopiq gruntga sabzavotlar ishlab chiqarishini sezilarli oshishiga olib keladi. Bu texnologiya bilan yetishtirish hosildorlikni 1,5 – 1,7 marta oshirish, suv sarfini 20 – 30% , bitta o'simlikni beriladigan substratlar sarfini 5 - 6 marta tejash imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligining yil davomida eng ko'p mehnat talab etadigan tarmoqlaridan biri bu yopiq grunt sabzavotchiligidir. Axolini qishgi muddatlarda yangi va mahsulot sifati talabga javob beradigan sabzavotlar bilan ta'minlash uchun issiqxonalardan foydalaniladi.

Issiqxonada yetishtiriladigan sabzavot ekinlarining assortimenti xilma xil bo'lishiga qaramasdan, pomidor yopiq gruntning yetakchi ekinlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Albatta, yopiq grunt da yetishtiriladigan pomidor nav va duragaylari yuqori hosildor bo'lishi bilan birga, unga qo'yiladigan talablardan yana bittasi shu sharoitga moslashganlik bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, bu nav va duragaylarning hosildorligiga yetishtirish texnologiyasining ta'siri katta. Muayyan sharoitda yetishtirishga mos nav va duragaylarni tanlashdan tashqari, hosildorligi yuqori, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yuqori sifatli maxsulot beradigan duragaylarni tanlash bilan bir vaqtda yetishtirish texnologiyasining samarali usullaridan foydalanish yopiq grunt sabzavotchiligidagi samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shu sababli ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarishda himoyalangan grunt da yetishtiriladigan pomidor nav va duragaylarining hosildorligiga yetishtirish texnologiyasining ta'sirini o'rganish va shunga asosan xulosa qilish maqsad etib qo'yildi.

1. Adabiyotlar sharxi.

Xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

Axolini vitaminlarga boy bo'lgan maxsulotlar bilan ta'minlashda sabzavotlar muxim ahamiyatga ega. Ma'lumki sabzavot maxsulotlari vitaminlarga, uglevodlarga, oqsil, yog'lar, mineral tuzlar va organik kislotalarga boy tarkibga ega. Bunday tarkib odam organizmi sog'ligi uchun ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

Sabzavot ekinlari ichida pomidor yetakchi 15 ta ekin qatoriga kirib, dunyoda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining 85% ini tashkil etadi va yetishtirish maydoni va oziq – ovqat maxsulotlari orasida ishlab chiqarish xajmi bo'yicha 10 o'rinda turadi. Oziqlanish me'yoriga binoan, inson bir yilda 35 kg pomidor iste'mol qilishi lozim va bu kunda taxminan vazni 110 – 180 g bo'lgan bitta mevani tashkil etadi (Krug G., 2007).

Pomidor tarkibida provitamin A bo'lib, bu vitaminning inson xayot faoliyatida organizm xujayralarining o'sishi va rivojlanishida roli katta. Bundan tashqari, pomidor tarkibida vitamin RR (nikotin kislota), S vitaminlari ham mavjud.

Tomatda K_2O – 0,290 %, SaO – 0,043 %, FeO_3 – 0,016 %, R_2O_5 – 0,070 % elementlari S vitamini – 27 mg, provitamin A – 2,0 mg, V – 0,08 mg, V_2 – 0,045 mg, RR – 0,47 mg, R – 18 mg ni tashkil qiladi (X.Ch.Buriyev, 1999).

Bunday vitaminlarga boy sabzavot ekinlari bilan axolini qishgi mavsumlarda ham ta'minlash uchun Respublikamizda himoyalangan gruntda ham sabzavot ekinlari yetishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Issiqxonalarda sabzavot ekinlari yetishtirishning afzalligi ularda ekin yetishtirish uchun sharoit yaratish mumkinligi, masalan, sun'iy iqlim, sun'iy grunt, xavo xarorati, tuproq va xarorat rejimini boshqara bilish kabi sharoit, ya'ni mikroiklim yaratishdir (B. Xoshimxujayev 2006).

Bundan tashqari, shu suniy sharoitga mos nav va duragaylar yaratish ham eng muxim va asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Albatta issiqxonalarda ba'zi chiqimlar (issiqlik va elektr energiyasi) maxsulot tannarxini oshib ketishiga olib keladi. Lekin hosildorligi baland,

issiqxona sharoitiga mos, kasallik va zararkunandalarga chidamli, tezpishar tashishga va saqlashga chidamli, yuqori sifatli navlarni yaratish bilan tannarxni pasaytirish mumkin. Yuqorida keltirilgan vazifalar seleksionerlarimiz oldiga yuksak mas'uliyat qo'yadi (Buriyev X.Ch., 1999).

1 jadval

Kul elementlari va vitaminlar miqdori (quruq moddaga nisbatan foizda)

Kul elementlari	Miqdori	Vitaminlar	Miqdori
K_2O	0,290	S	2,0
SaO	0,043	V1	0,08
Fe_2O_3	0,016	V2	0,04
R_2O_5	0,070	RR	0,47

Yopiq gruntida yetishtiriladigan pomidor navlariga qo'yiladigan talablar va yetishtirish texnologiyasi.

Tomat – ituzumdoshlar oilasining eng ko'p tarqalagan sabzavot ekinlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Dunyoda tomat ishlab chiqarish 70 mln tonnani tashkil qilib, maydoni 3,0 mln. gektarga yetadi. Dunyo bo'yicha eng yirik pomidor yetishtiruvchi davlatlar Xitoy, Meksika, Italiya, Ispaniya va AQSh lari hisoblanadi.

Pomidor mevasini sabzavot xom ashyosi sifatida eng ko'p qayta ishlash xajmi 80% ni tashkil etadi. Ko'pchilik davlatlarda tomatni qayta ishlash asosiy ekspert predmeti bo'lib hisoblanadi (www.tomat-pomidor.com/).

Yopiq gruntida yetishtiriladigan pomidor navlariga ochiq gruntdagiga qaraganda yuqoriroq talab qo'yiladi. Ular tezpishar, noqulay yetishtirish sharoitida (yorug'lik va issiqlikning yetishmasligi, xavoning nisbiy namligining yuqori bo'lishi, xaroratning keskin o'zgarishi bilan bog'liq sharoitlar) yuqori maxsuldor bo'lishidir. Bunday navlarning mevalari nafaqat tashqi ko'rinishi, balki biologik qimmatini bilan xam yuqori sifatli bo'lishi maqsadga muvofiq. Issiqxonada tomatning vegetasiya davri davomiy bo'lib (yarim yil va undan ziyod), sharoit qator kasalliklarni rivojlanishiga olib keladi. Yangi yaratilayotgan navlarning tomatning asosiy kasalliklariga genetik chidamli bo'lishi hosildorlikni oshirish omili bo'lib hisoblanadi. Bunday kasalliklar qatoriga alternarioz, fitoftoroz, barg ola dog'lilik, fuzarioz so'lish, kul chirish va x.k. keyingi yillarda tomat navlari o'rniga ko'pincha plastikligi yuqori, noqulay yetishtirish sharoitida maxsuldorligi yuqori F_1 geterozis duragaylarni ekish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi (G.S.Osipova, 2001).

Kelib chiqishi janubiy Amerikadan bo'lganligi sababli tomat issiqqa talabchan bo'lib hisoblanadi. $10^{\circ} S$ da uning o'sishi pasayadi, $15^{\circ} S$ dan past xarorat uning yaxshi gullashiga to'sqinlik qiladi. Xarorat $30^{\circ} S$ dan yuqori bo'lganda o'simlikning o'sishi sekinlashadi, xarorat $35^{\circ} S$ dan oshganda esa o'sishdan to'xtaydi va o'z navbatida changlanishni qiyinlashtiradi. Havo namligi

yuqori bo'lib, xarorat 12°S dan past bo'lganda changlanish umuman bo'lmaydi. Pomidorning o'sishi va rivojlanishi uchun optimal xarorat $20 - 24^{\circ}\text{S}$ kunduzi va $16 - 18^{\circ}\text{S}$ kuchqurun bo'lib hisoblanadi.

Tomatning yorug'likka bo'lgan talabi yuqori, yaxshi yorug'lik sharoitida fotosintez jarayoni faollashadi. O'sish va rivojlanish kuchayadi. Tomat tuproq namligining yuqori bo'lishiga talabchan ($80 - 90\% \text{ NV}$), lekin normal xavo namligi $60 - 65\%$. Issiqxonada tomat yetishtirganda maqbul navni tanlash muxim ahamiyat kasb etadi. Chunki nav faqatgina agrotexnika xususiyatlarini emas, balki, hosil miqdori va sifatini belgilaydi. Shu sababli, yopiq gruntida yetishtirishga mos, yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarni yaratish seleksiyasiga aloxida e'tibor berish seleksioner olimlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yopiq gruntida yuqori hosildor, aniq yetishtirish zonasi, yetishtirish muddati va inshoot uchun mos navlarni yaratish zarur. Navlarning tarqalishi ko'pincha tuproq – iqlim sharoitiga bog'liq (M.F. Stepurko 2004).

Yopiq gruntida pomidor bodringdan keyin ekilsa organik o'g'itlar berilmaydi. Agar birinchi pomidor ekilsa kuzda m² ga $8 - 10 \text{ kg}$ beriladi. O'g'it berilgach tuproqqa ishlov beriladi. Bundan tashqari, tuproqda rN, 20 sm tuproq yuzasidagi azot, fosfor, kaliy va magniy miqdorini aniqlash xam maqsadga muvofiq. Taxlili qilish orqali tuproqqa qancha miqdorda mineral o'g'it berish hisoblanadi. Fosfor va magniyni zarur bo'lgan miqdori butun mavsum uchun bir marta beriladi. Ekish oldidan azotga zarurat bo'lmay, balki bu o'g'it o'suv davri davomida bir xilda taqsimlanadi.

Shamollatishga aloxida e'tibor beriladi. Issiqxonada optimal namlik $70 - 80\%$ bo'lishi maqsadga muvofiq. Namlikni bu darajada tutib turish o'simlikni tez o'sishiga, normal changlanishiga kasalliklarga chalinmaslikka olib keladi.

O'simlikni shaxmat usulda joylashtirish yorug'likning yaxshi ta'minlanishiga sabab bo'ladi (www.websadovod.ru/veg/tomat).

Oyda ikki marta pomidorni ildizdan yuqori qismini mikroelementlar bilan oziqlantirish tavsiya etiladi. Bunday elementlar marganes sulfat, mis sulfat, bor kislotasi va rux sulfat bo'lib hisoblanadi (G.N. Nenaydenko, 2003).

O'simlikka ishlov berish ekindan yuqori hosil olishni ta'minlaydigan asosiy usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Pomidorda ortiqcha barglarni olib turish ekinni to'g'ri o'sishini, oziqani butun o'simlik bo'ylab to'g'ri taqsimlanishini ta'minlaydi. O'simlik barglarini olish birinchi mevani yig'ishtirishdan oldin o'tkaziladi va butun mavsum davomida doimiy o'tkazib turiladi. Barglarni normadan ziyod olib tashlanishi fotosintez jarayonini buzilishiga va hosilni pasayishiga, bundan tashqari meva sifatining pasayishiga olib keladi. Pastdan barcha eski barglarning olib tashlanishi xavo aylanishining yaxshilanishini ta'sinlaydi.

O'simlikda gullash davri boshlanishidan yon novdalar olib tashlanadi va bu juda extiyokorlikni talab etadi. Chunki noto'g'ri ishlash asosiy poyani zararlantirishi mumkin. Barcha yon novdalarning vaqtida olib turilishi asosiy poyaning kuchli bo'lishini va yaxshi rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida yuqori hosildorlik garovi bo'lib hisoblanadi. Yon novdalar uzunligi 50 mm dan oshmasligi lozim (www.vsaduogorode.ru/determinantnye-sorta-tomatov/).

Parniklar, ko'chatxonalar va stellajli issiqxonalarda tuproq har yili almashtirib turiladi. Tuproqli issiqxonalarga esa har yili mahalliy va mineral o'g'itlar solinib, yerning yuza 0-10 sm qatlami ikki yilda bir marta almashtirib turiladi.

Yopiq maydon uchun tayyorlangan tuproq unumdor, mexanik tarkibi yengil, havo hamda suv o'tkazish qobiliyati yaxshi, suv so'rish qobiliyati katta, tuproq eritmasining reaksiyasi neytral yoki kuchsiz ishqoriy va kislotali, kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar va zararkunandalardan holi bo'lishi shart. Solinadigan tuproq parnik chirindisi, xazon (barg) chirindisi, chimzor (ko'p yillik o'tlar) va dala (bedapoya) tuprog'ini o'stiriladigan ekinlar talabiga muvofiq muayyan nisbatlarda aralashtirib tayyorlanadi. Tuproqlar aralashtirishdan oldin g'alvirdan o'tkaziladi (L.V.Смышкова, 2007).

Ko'chat va issiqxonalarda tuprog'ini almashtirish juda qimmatga tushadigan va sermehnat ish. Uni almashtirish o'rniga kasallik

qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar va zararkunandalardan turli usullarda yuqumsizlantiriladi.

Tuproqni yuqumsizlantirishning asosan uchta: biologik, termik va kimyoviy usullari qo'llaniladi. Mavsum oldidan tuproqni yuqumsizlantirish maqsadida issiqxonalar ikki marta dezinfeksiyalanadi: birinchi-o'simlik qoldiqlarini yig'ishtirib olmasdan o'tkazilsa, ikkinchisi-o'simlik qoldiqlari yig'ishtirilgach o'tkaziladi.

Ko'chatxona va issiqxonalarda ayniqsa, tuproq qatlami yupqa bo'lgan stellajli teplisalarda, tuproqdagi nam haddan tashqari tez bug'lanadi. Shuning uchun ularda tuproq hamda havo namligini rostlab turish birinchi darajali ahamiyatga ega. Tuproq va havo namligini rostlab turish yo'li bilan o'simliklarning o'sishi va rivojlanishini boshqarish mumkin(T.E.Ostonaqulov va boshq. 2008).

1.3. Himoyalangan gruntida yetishtiriladigan pomidor seleksiyasining asosiy yo'nalishlari.

Axolining sabzavot ekinlari ichida pomidorga bo'lgan talabi yuqori bo'lib, maqsadga muvofiq, talabga javob beradigan nav va duragaylarni yaratish seleksionerlarning oldidagi muxim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Yopiq gruntida yetishtiriladigan pomidor navlariga ochiq gruntdagiga qaraganda yuqoriroq talab qo'yiladi. Ular tezpishar, noqulay yetishtirish sharoitida (yorug'lik va issiqlikning yetishmasligi, xavoning nisbiy namligining yuqori bo'lishi, xaroratning keskin o'zgarishi bilan bog'liq sharoitlar) yuqori maxsuldor bo'lishidir. Bunday navlarning mevalari nafaqat tashqi ko'rinishi, balki biologik qimmatini bilan xam yuqori sifatli bo'lishi maqsadga muvofiq (Ye.S. Demidov, 2006).

Yopiq gruntida yetishtiriladigan pomidor navlari seleksiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri shu sharoitga moslashganlik bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, issiqxonada o'simlik uchun zarur bo'lgan sharoit (mikroiqlim) sun'iy ravishda yaratiladi. Shuning uchun xam yopiq gruntida o'simliklarni yetishtirish sharoitini yaratish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni talab etadi. Bu esa o'z navbatida rentabellikka ta'sir ko'rsatadi. Yopiq grunt sharoitida asosiy omili issiqlik, yorug'lik, namlik, xavo va tuproq bo'lgan mikroiqlim sun'iy yaratiladi. Bu o'simlik uchun zarur, almashtirib bo'lmaydigan va bir biri bilan uzviy bog'langan sharoit bo'lib hisoblanadi. Issiqxonadagi mikroklimat tuproq va meteorologik sharoit (iqlim sharoiti) issiqxona yopilgan materialning optik xususiyatlari, inshoot tuzilishi va uskunalarga (isitish tizimi, shamollatish, sug'orish va oziqa) bog'liq.

Issiqxonada mikroiqlimni boshqarish orqali yetishtirilayotgan ekinning yaxshi o'sishi va rivojlanishiga erishish mumkin.

Yopiq gruntida xavo namligining yuqori bo'lishi ko'pincha pomidorni xar kasalliklar bilan zararlanishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida hosildorlikni keskin (25 – 50%) pasayishiga olib keladi (S.V.Gavrish, 2003).

Yopiq grunt uchun pomidor navlarini yetishtirish – inshootlarning shakli, yetishtirish muddati va tashqi muxit xususiyatlariga bog'liq. Masalan, asosan qishgi – baxorgi muddatlarda foydalaniladigan issiqxonalar uchun pomidorning palagi indeterminant tipda, bo'g'in oralig'i kalta va bir biriga yaqin joylashgan 4 – 5 mevali boshqoq hosil qiladigan navlar talab etiladi. Bundan tashqari bunday navlar qish faslida yorug'lik yetishmaydigan sharoitda chidamli bo'lishi kerak. Yopiq grunt uchun yetishtiriladigan pomidor navlari u yoki bu xildagi foydalaniladigan inshootlardagi mavjud yorug'lik, xarorat va suv rejimi sharoitida yuqori hosil olishni ta'minlashi kerak (V.G. Korol, 2003).

Pomidor seleksiyasining muxim va umumiy yo'nalishi – yuqori hosilli, mevasining sifati yaxshi, o'stirish sharoitiga mos, hosilni yetishtirish va yig'ib olishga mos nav va duragaylar yaratishga qaratilgan. Pomidor navlari yangi terib olingan shaklda istye'mol qilish uchun va qayta ishlashni xamma xillariga (tomat shirasi, po'sti bilan yoki po'stsiz konservalashga) mos bo'lishi kerak. Shuning uchun pomidor mevasining oldidagi talablar xar xil bo'ladi. Masalan, salat uchun yetishtiriladigan navlarning mevasi sermag'z, shakli va rangining ko'rinishi yaxshi, mevasi chiroyli, qayta ishlash uchun quruq moddalarning ko'pligi, chiqimi kam (urug'i, po'sti va qattiq to'qimalar) meva bandi atrofida yashil dog'ning bo'lmasligi maqsadga muvofiq (L.V. Smychkova, 2007).

Respublikamizda xam boshqa davlatlardagi kabi issiqxonalar uchun yetishtiriladigan tomat seleksiyasining odatdagi yo'nalishlardan tashqari tashishga, mevasining yorilishiga chidamli tomat F_1 duragaylarini yaratish ishlarini olib bormoqdalar. Xozirda rin genli tomat F_1 duragaylari keng ko'lamda yetishtirilmoqda. Tomat irsiyatida rin genining resiprok chatishtirishda duragay o'simlikning foydali xo'jalik belgilariga ta'siri kuzatilgan, ya'ni rangiga, yotib qolishga, tashishga chidamliligiga, mevasining tovarliligiga va tezpisharligiga ta'siri. Duragay kombinasiyalarida rin genining ona formasi tomonidan berilgandagiga qaraganda foydaliroq. Bunday duragaylar hosildorlik bo'yicha nazoratdagiga qaraganda yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatgan. Bundan tashqari, bunday duragaylarda monosaxaridlar, askorbin kislota miqdori ko'p. Pomidorda

xam ba'zi ko'rsatkichlar bilan hosildorlik korrelyativ bog'liq. Masalan, ko'p olimlarimiz ildiz sistemasining mustaxkamligiga qarab hosildorlikka tanlash o'tkazganlar. Kuchli ildiz sistemasiga ega bo'lgan namunalar hosildorlik bo'yicha nazoratdan 21 – 30% ustunlik qilgan va bu avlodlarda saqlanib qolgan (Abdukarimov D.T. 2010).

Yopiq grunda yetishtiriladigan tomat seleksiyasining asosiy yo'nalishlarini tezpishar, mevasining shakli va rangi tekis, bir xil, ajoyib ta'mga ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, o'simlikning reproduktiv organlari yaxshi shakllangan, mevasi meva bandi bilan teriladigan, bitta mevasining og'irligi 180 – 220 gr. atrofida, mevasining rangi och qizil, yorilishga chidamli, tovarliligi yuqori, meva bandi atrofida yashil dog'i yo'q, mevasi qattiq, yuqori hosilli nav va duragaylarni yaratish va asosiy yo'nalishlaridan yana birini tashishga chidamli nav va duragaylarni yaratishni tashkil etadi.

Kasallik va zararkunandalarga chidamlilikka qaratilgan seleksiya ishi xududlarga, o'stirish usuliga va shu sharoitlarda rivojlanadigan kasalliklarga bog'liq.

Hozirgi vaqtda tomatning ba'zi kasalliklarga genetik chidamlilari topilmagan, lekin, duragaylashda tomatning yovvoyi formalaridan foydalanib seleksiya ishlarini olib borish mumkin degan xulosaga kelingan (A.F. Buxarov, 2002).

O'simlikni xasharot va zararkunandalarga chidamliligini oshirishda o'simlik tuzilishining anatomo – morfologik xususiyati katta ahamiyat kasb etadi. Kasallik tashuvchilar tomonidan oson o'tish davri tomatda o'simlikning kritik rivojlanish fazasi bilan xasharotning ommaviy uchish davrining to'g'ri kelishiga bog'liq. Ma'lumotlarga qaraganda unib chiqish – gullash va gullash – meva tugish davri qisqa (ertapishar) navlar kasallik paydo bo'lgunga qadar hosilning asosiy qismini berib ulguradi (Gavrish S.F. 2005).

Issiqxonada tomatning vegetasiya davri davomiy bo'lib (yarim yil va undan ziyod), sharoit qator kasalliklarni rivojlanishiga olib keladi. Yangi yaratilayotgan

navlarning tomatning asosiy kasalliklariga genetik chidamli bo'lishi hosildorlikni oshirish omili bo'lib hisoblanadi. Bunday kasalliklar qatoriga alternarioz, fitofторoz, barg ola dog'lilik, fuzarioz so'lish, kul chirish va x.k. keyingi yillarda tomat navlari o'rniga ko'pincha plastikligi yuqori, noqulay yetishtirish sharoitida maxsuldorligi yuqori F_1 geterozis duragaylarni ekish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Pomidor seleksiyasi uchun eng asosiy vazifahosildorlikni oshirishdir. Hosildorlik xar bir nav va duragayning yakuniy samarasining natijasidir.

Tomatning seleksiya ishlarida tezpisharlikka qaratilgan seleksiyada qator qiyinchiliklar mavjud bo'lib, odatda ertapishar tomat navlarining hosildorligi past bo'ladi. Duragaylarning birinchi avlodida tezpisharlik bilan yuqori hosildorlikni chatishish qobiliyati yuqori ota – ona liniyalarni tanlash orqali birlashtirish mumkin (Strelnikova T.R. 1997).

Bunda quyidagi vazifalar bajariladi:

- dastlabki materialni qimmatbaxo morfologik belgi xususiyatlarini baxolash;
- pomidorning tezpisharlik bilan bog'liq bo'lgan qimmatli xo'jalik belgilarini o'zgaruvchanligini o'rganish;
- tezpisharlik va asosiy morfologik xamda bebaxo xo'jalik biologik belgilari orasidagi korrelyasion bog'liqlikni aniqlash;
- topkross usuli bilan olingan duragaylarning asosiy xo'jalik belgilari bo'yicha dominantlik darajasini aniqlash;
- F_1 da tomat liniyalarining (ulardan to'liq diallel chatishtirishda foydalanib) fazalararo davr davomiyligini irsiylanishini, kombinasion qobiliyatini va genetik parametrlarini o'rganish;
- liniyalar orasidan istiqbolli deb hisoblanganlarini ajratish;
- liniyalar ichidan kasalliklarga chidamlilikni baxolash (Ye. Lyan, 2007).

Ba'zi olimlarimiz (Pivovarov va boshq. 2002) tomatda tezpisharlik belgisini unib chiqishdan to meva pishishgacha kunlar miqdori (biologik tezpisharlik) yoki birinchi hosilni yig'ishtirish muddati (xo'jalik tezpisharlik) ni hisoblaydilar.

Tezpisharlik bo'yicha geterozisning namoyon bo'lishi bitta ota – ona formasida “unib chiqish – gullash” va boshqasida “gullash – pishish” kabi qisqa davrlarni birlashtirganda kuzatiladi (Alpatyev A.V. 1982).

Olimlarimiz tomonidan tezpishar va determinant shoxlanish tipiga ega namunalarda sovuqqa chidamlilik xususiyati kuzatilgan (Garanko I.B. 1989).

A.S.Vlasovning aniqlashicha (1998), tezpisharlik – bu murakkab belgi bo'lib, u bir nechta genlar tomonidan nazorat etiladi.

M.I. Mamedovning fikricha (2002) pomidorning erapisharlik xususiyatini oshirishga birorta fazaning davr davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin.

“Unib chiqish – gullash” va “unib chiqish - pishish” davrlari orasida korrelyasion bog'liqlik mavjudligi aniqlangan (Guseva L.I. 1999).

Tezpisharlik – pomidor mevasida o'tadigan biokimyoviy va fiziologik jarayonlarning tezligi va xarakteri bilan bog'liq. Ba'zi genlar meva pishishini sekinlashtiradi, bu esa vegetasiya davrining uzayishiga olib keladi (Lapushner D et al., 1999).

Seleksiyaning faol rivojlanishi natijasida pomidorning yangi, qisqa vegetasiya davri sharoitlariga moslashgan, tez rivojlanish xususiyatiga ega, oziq moddalarni faol to'playdigan, reproduktiv organlari erta shakllanadigan navlar yaratildi.

Pomidorning tezpisharligi unib chiqishdan meva tugishgacha bo'lgan davr davomiyligiga qarab aniqlanadi. U vegetativ va reproduktiv organlarning shakllanish muddati bilan bog'liq. Tezpisharlik – bu o'simlikni qisqa muddat mobaynida tez sur'atda o'sish va rivojlanish va pishishni tezlashtirish qobiliyatidir. Biologik nuqtai nazardan - bu o'simlikni qisqa vegetasiya davriga yoki turni saqlashga imkon beradigan muxitning ekstremal sharoitlariga zarur moslashish reaksiyasi bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik nuqtai nazaridan tezpisharlik bu erta birinchi hosilni yig'ishtirish ko'rsatkichlaridir.

Tezpisharlik belgilarini davrlar bo'yicha, ya'ni ekishdan unib chiqishgacha, unib chiqishdan gullashgacha, gullashdan meva pishishgacha bo'lgan davr oralig'ida o'rganish zarur. Seleksiyada tezpisharlik belgilaridan foydalanish

yuqorida keltirilgan davrlardan bittasini qisqartirish hisobiga ertapisharlik xususiyatini oshirish imkonini beradi. Unib chiqish va gullash, unib chiqish va mevaning pishishi, unib chiqish va to'liq shakllanish, unib chiqish va pishish o'rtasida korrelyativ bog'liqlik kuzatiladi. Bunda pishishning boshlanishi gullashning boshlanishi va gullashdan meva pishishgacha bo'lgan davr davomiyligiga ijobiy korrelyativ bog'liq ekanligi ma'lum. Lekin, pishish davri bilan mevaning vazni, gullash davomiyligi bilan mevaning vazni orasida korrelyativ bog'liqlik kam. Bu ko'rsatkichlar bir biriga bog'liq emas. Shunga qaramasdan tezpisharlik va meva yirikligi qiyin seleksion masala bo'lib hisoblanadi. Tuguncha yirikligi va meva vazni orasidagi korrelyativ bog'liqlik bir vaqtning o'zida xam tezpisharlik, xam meva vazni bo'yicha tanlash ishlarini olib borish imkonini beradi (vip-tomat.ru/OSOBENNOSTI_VYIRASchIVANIYa).

Yuqori hosil beradigan navlarni yaratishda, ayniqsa ko'p xarajat talab qiladigan yopiq grunt sharoitida geterozis duragaylardan foydalanish samarali usullardan bo'lib hisoblanadi. Geterozis –biologik xodisa bo'lib, F_1 geterozis duragaylarini yaratishda foydalanadigan, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini yangi darajaga ko'tarish va hosildorlikni dastlabki navga qaraganda 20 - 50 % oshirish imkonini beradigan o'simliklar seleksiyasining yirik yutug'i bo'lib hisoblanadi (B. Xoshimxujayev, 2006).

Geterozis- duragaylar birinchi avldodining ota – ona formalariga nisbatan ma'lum biologik va bebaxo xo'jalik belgi va xususiyatlari bo'yicha ustun bo'lishidir.

Geterozisning samarasini seleksiya jarayonining boshlang'ich boshqichlarida aniqlash, istiqbolli juftlarni yuzaga chiqarish va duragaylarni dalada sinash kabi ishlar xajmini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Geterozisni namoyon bo'lishining birinchi belgilarini duragaylar rivojlanishining boshlang'ich fazalarida aniqlash mumkin.

Abramov M.X. va boshqalarning (1997) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, turli ekish muddatlarida F_1 duragaylardan yuqori va stabil hosildorlik o'zgaruvchan sharoitlarda yuqori moslanuvchanlik xususiyatidan darak beradi.

Duragay avlodda belgilarning namoyon bo'lishi dastlabki juftlarning genotipik xususiyatlariga bog'liq.

Pomidorning kasalliklarga chidamlilik, soyaga chidamlilik, tezpisharlik va boshqalar kabi qator belgi xususiyatlar orasida tashishga chidamlilikka xam aloxida e'tibor qaratilmoqda.

Uzoq muddat mevalarini saqlaganda (15 – 20 kun) o'zining tovarboplik xususiyatlarini yo'qotmaydigan geterozis duragaylar va navlarni yaratish iste'molchilarga yangi pomidor maxsulotini qabul qilish muddatini uzaytiradi. Bundan tashqari, sifatli maxsulotni uzoq masofalarga tashish imkonini beradi (www.agrodepartament.ru/index).

Yopiq grunt da esa yorug'lik pomidorni yil davomida ishlab chiqarishni va ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini chegaralovchi abiotik faktorlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun yopiq grunt da yetishtiriladigan pomidor seleksiyasi ishlarining asosiy vazifalaridan biri yorug'likning yetishmasligiga kam ta'sirchan nav va duragaylarni yaratishdan iborat bo'lib hisoblanadi (R. Xakimov, 2013).

Yorug'lik faolligiga bog'liq ravishda barg plastinkasi parametrlarida o'zgarish yuz beradi, o'sish jarayoni, gullash va meva hosil bo'lishga o'tish davri sekinlashadi, to'pgul hosil bo'lish sikli buziladi, meva rangida notekislik (ya'ni dog'lar) hosil bo'ladi va o'simlikning normal rivojlanishida qator boshqa kamchiliklar paydo bo'ladi. Birinchi to'pgulda shonalash davrida yorug'likning yetishmasligi jinsiy xujayralarning shakllanish jarayonini buzilishiga va shonalarning to'kilib ketishiga olib keladi va natijada birinchi to'pguldagi maxsuldorlik pasayadi, bu esa o'z navbatida ertachi hosilning nobud bo'lishiga olib keladi.

Yopiq grunt da pomidor yetishtirishda yorug'likdan keng foydalanish maqsadida yorug'lik rejimini yaxshilash, tejamkor manbalardan foydalanish, tomat

yetishtirishda kichik xajmli texnologiyadan foydalanish, yorug'likni aks ettiruvchi materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi (Ye. Lyan, B. Xoshimxo'jayev, 2007).

5. Hayot faoliyati xavfsizligi va atrof muxitni ximoya qilish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federasiyasi Kengashi bilan birgalikda mehnatni, atrof muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslangan standartlari, qoida va me'yorlarini ishlab chiqish va qabul qilish yo'li bilan ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan talablar darajasini belgilaydi. Shuningdek kasaba uyushmalari bilan kelishilgan holda mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar, kasb kasalliklarining oldini olishga oid Respublikaning aniq maqsadga qaratilgan dasturlarini ishlab chiqadi va moliyaviy ta'minlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi. Vazirliklar va idoralar tegishli kasaba uyushmasi idoralari bilan kelishilgan holda mehnat sharoitlarini yaxshilashga oid tarmoq dasturlarini ishlab chiqadilar va moliyaviy ta'minlaydilar.

Korxona ma'muriyati, yollovchi, mulkdor yohud ular vakolat bergan boshqaruv idorasi korxonada mehnatni muhofaza qilish standartlari, qoida va me'yorlarining talablari, shuningdek jamoa shartnomasida ko'zda tutilgan majburiyatlar bajarilishini ta'minlaydi.

Korxonalarining ishlovchilari respublikaning tegishli qonunlari va me'yoriy hujjatlari jamoa shartnomalari bilan belgilangan mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlari talablarga rioya etishlari shart. Standartlar, ergonomika, mehnatni muhofaza qilishga doir qoidalar va me'yorlar talablariga javob bermaydigan ishlab chiqarish binolari va inshootlarini loyihalash, qurish hamda qayta qurish, ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqish, tayyorlash, ta'mirlash, texnologiyalarni joriy etishga, shu jumladan xorijda sotib olinganlarini joriy etishga yo'l qo'yilmaydi.

Hayech bir yangi yoki qayta qurilayotgan korxona, ishlab chiqarish vositalari agar ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda beriladigan xavfsizlik shahodatnomasiga ega bo'lmasa, foydalanishga qabul qilinishi va ishga tushirilishi mumkin emas.

Mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va ishlovchilar sog'lig'i hamda hayotiga xavf tug'diruvchi korxonalar faoliyati yoki ishlab chiqarish

vositalaridan foydalanish, ular mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirilgunga qadar, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda vakolatli idoralar tomonidan to'xtatib qo'yilishi kerak. Yo'l qo'yiladigan eng ko'p me'yorlari (konsentrasiyasi) ishlab chiqilmagan va belgilangan tartibda ekspertizadan o'tmagan zararli moddalarni ishlab chiqarishda qo'llash taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat va korxonalar oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida korxonalarning mehnatni muhofaza qilish uchun mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydilar. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari xalq xo'jaligi turli tarmoqlaridagi ishlab chiqarish xususiyatlarini hisobga olgan xolda talabalar va o'quvchilar mehnatni muhofaza qilish kursini albatta o'tishlarni tashkil etishlari kerak. Vazirliklar, idoralar, konsernlar, assosiasiyalar va boshqa xo'jalik boshqaruvi idoralari mehnatni muhofaza qilish tizimida ishlash uchun mutaxassislarning qayta ixtisoslashuvini ta'minlaydilar.

Korxona va tashkilotlarda mehnat sharoitlarini yaxshilash va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xavfsizlik texnikasi xizmati ko'zda tutilgan. Xavfsizlik texnikasi xizmatining asosiy vazifalari korxonalarda ishlab chiqarish travmatizmi sabablarini bartaraf etish ishlarini bajarish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xavfsizlik texnikasi va himoya vositalarini takomillashtirish, ishlab chiqarish madaniyatini ko'tarish, tashkiliy-texnik va sanitariya-gigiyena tadbirlarini ishlab chiqarish va amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqarish va texnik xizmatlarning ishini nazorat qilishdan iborat. Xavfsizlik texnikasi xizmati o'z ish faoliyatida kasaba uyushma organlari va ularning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha komissiyalari bilan doimiy aloqada bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlik texnikasining holatiga javobgarlik o'zlariga topshirilgan ish uchastkasi chegarasida ish yurituvchilarga yuklanadi.

Tashkilot va korxonalarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlar hukumat qarorlari va ko'rsatmalariga amal qilgan holda amalga oshiriladi.

Toshkyentda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat bionazorati bosh boshqarmasi va O'zFA Zoologiya

instituti tomonidan yo'q bo'lib kyetish xavfi ostidagi qushlarni (itolg'i, yo'rg'a, tuvaloq) sun'iy sharoitda ko'paytirish va tabiatga qo'yib yuborish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekistonning birinchi «Qizil kitob» i 1983 yilda nashr qilingan bo'lib, unga umurtqali hayvonlarning 63 turi, kiritilgan edi. «Qizil kitob» davriy nashrdir va Nizomga muvofiq xar byesh yilda yangilanib qayta nashr qilinishi lozim. Ushbu muddat ichida «Qizil kitob» ga kiritilgan turlarning maqomi o'zgarishi, olib borilgan maxsus muhofaza choralari tufayli ba'zi turlarning soni tiklanishi, yashash sharoitining o'zgarishi tufayli kamayishi hamda boshqa ta'sir etuvchi omillar hisobiga qisqarishda davom etishi va hattoki boshqa toifaga o'tish mumkin.

Hozirgi paytda O'zbekiston Fanlar Akadyemiyasining Zoologiya institute va O'zbekiston Zoologiya jamiyatining harakatlari bilan yurtimiz faunasining shu kundagi ahvolini va ko'pgina hayvonlar turlarini maqomini baholashga imkon byeruvchi juda boy ma'lumotlar to'plangan. Yangi «Qizil kitob» ga sut emizuvchilarning 23 turi, (kyenja turlar bilan 24), qushlarning 48 turi (kyenja sinflar bilan 51), sudralib yuruvchilarning 16 turi, baliqlarning 17 turi (kyenja turlar bilan 18), xalqasimon chuvalchaglarning 3 turi, mollyuskalarning 14 turi, (kyenja turlar bilan 15), va bo'g'imoyoqlilarning 61 turi (kyenja turlar bilan 62) kiritiladi.

Shu bilan birgalikda 1983 yilda nashr etilgan ««Qizil kitob» da kyeltirilgan sut emizuvchilar va qushlarning ba'zi turlari ushbu nashrga kiritilmadi. Ulardan ba'zilarining soni hozirda ryepublika hududida barqarorlashgan bo'lsa (olakuzan, kum chumchugi), ba'zilar esa tasodifiy muhojir (kichik oqqush, katta shomshapalak, qizil bo'ri) yoki O'zbekiston faunasida mavjudligi yyetarlicha asoslanmagan tur (manul, tyonshon tog' qo'yi) dyeb hisoblanadi. Bundan tashqari kitobda TMXI Qizil ro'yxatiga (2000) kiritilgan, ammo O'zbekiston Ryepublikasida yo'q bo'lib kyetish xavfi ostida bo'lmagan hayvonlar ro'yxati xam kyeltirilgan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda biologik xilma-xillikni saqlab kolish borasida bir qancha jiddiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ularni yanada jadallashtirish-kamyob va yo'q bo'lib kyetayotgan turlar muxofazasini kuchaytirishga hamda sonini tiklashga xizmat qiladi. Ryespublikada tashkil qilingan oltita tog' (Xisor, kitob, Nurota, Surxon, Chotqol, Zomin) uchta chul-to'qay (Qizilqum, Boday-To'qay, Zarafshon) qo'riqxonalari, ikkita milliy bog' (Zomin, Ugom-Chotqol), to'qqizta buyurtmaxona (Arnasoy, Dyengizko'l, Qoraqir, Qorako'l, Qarnabcho'l, Qo'shrabot, Sayg'oqli, Sarmish, Sudochi) va ikkita tabiiy yodgorliklardan (Vardonzye, Yozyovon) iborat ekologik tarmoq hayvonot olamining majmui muhofazasiga va uning ryesurslaridan barqaror foydalanishga xizmat qilmoqda. Nafaqat Ryespublikamizda, balki butun dunyoda yagona kamyob va ryeproduktsiya qilish bilan shug'ullanuvchi «Jayron» ekomarkazi xam alohida muhofaza qilinadigan hudud maqomiga ega.

Toshkyentda O'zbekiston Ryespublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi Davlat bionazorati bosh boshqarmasi va O'zFA Zoologiya instituti tomonidan yo'q bo'lib kyetish xavfi ostidagi qushlarni (itolg'i, yo'rg'a, tuvaloq) sun'iy sharoitda ko'paytirish va tabiatga qo'yib yuborish ishlari olib borilmoqda.

**6 . O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni
2013 yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga
mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga
bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan kelib
chiqadigan asosiy vazifalar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarga to'xtaldi.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyasiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investisiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

O'tgan yili ana shunday tovarlar ishlab chiqarishning o'sish hajmi 14,4 foizni tashkil etdi va yalpi sanoat hajmida ularning ulushi 35,5 foizga yetdi. Bunday tovarlarning raqobatdoshligi nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham tobora ortib bormoqda.

2013 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000 yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish

tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000 yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1 marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2 marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O'tgan 2013 yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi.

Qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo'lga qo'yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o'ynadi.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda.

2008 yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yer osti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.

Yangi ish o'rinlari tashkil etish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'lib qolmoqda.

Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013 yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Bu ish o'rinlarining 60,3 foizdan ortig'i qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o'rni tashkil etildi.

O'tgan yili biz uchun eng ustuvor vazifa bo'lmish kasb-hunar kollejlarining 500 ming nafardan ortiq bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi va aytish joizki, buning ahamiyatini baholashning o'zi qiyin. O'z xususiy ishini ochib, biznes bilan shug'ullanishga qaror qilgan kollej bitiruvchilariga 140 milliard so'mdan ziyod imtiyozli mikrokreditlar ajratildi.

2013 yilda qishloq joylardagi 353 ta massivda umumiy maydoni 1 million 500 ming kvadrat metr bo'lgan 10 mingta shinam uy-joylar barpo etildi, bu ko'rsatkich 2012 yilga nisbatan 17 foizga ko'pdir. Ushbu maqsadlar uchun qariyb 650 million dollar qiymatidagi mablag' yo'naltirildi. Buning 106 million dollari Osiyo taraqqiyot bankining kredit mablag'laridir.

Qishloqlarimizni obod qilish, qishloq aholisining turar-joy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha bizning bunday tajribamiz xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otmoqda.

2013 yilda ta'lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta'lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, maktablar, lisey va kollejlari, oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berildi.

O'tgan yili 28 ta yangi kasb-hunar kolleji qurildi, 381 ta umumta'lim maktabi, oliy o'quv yurtlari tizimidagi 45 ta obyekt, 131 ta kasb-hunar kolleji va liseylar rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Shuningdek, 55 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 112 ta bolalar sporti obyekti va 4 ta suzish havzasi foydalanishga topshirilib, ularning barchasi zarur uskuna va inventarlar bilan jihozlandi.

2013 yilda xalqimizning real daromadlari 16 foizga oshdi, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko'paydi.

2013 yilda 2000 yilga nisbatan aholimizning iste'mol xarajatlari 9,5 barobar oshganining o'zi ko'p narsadan dalolat beradi.

So'nggi yillarda jon boshiga to'g'ri keladigan eng muhim oziq-ovqat tovarlari bo'yicha iste'mol hajmi muttasil o'sib bormoqda, ayni vaqtda nooziq-ovqat mahsulotlarni xarid qilish va xizmatlar uchun to'lanadigan sarf-xarajatlar miqdori ham sezilarli ravishda ko'paymoqda. Misol uchun, mustaqillik yillarida go'sht iste'moli – 1,4 marta, sut – 1,3 barobar, sabzavot va poliz mahsulotlari – 2,6 marta, kartoshka – 2 barobar, mevalar iste'moli – 6,4 karra oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar qo'yidagilardir:

- qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirish;
- yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash;
- seleksiya ishlarini chuqurlashtirish;
- yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish;
- suvdan oqilona foydalanish;

- dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash;
- yerga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish.

–2013-2017 yillarda qabul qilingan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, barcha manfaatdor idoralar, Fermerlar kengashi va avvalambor fermer so'zsiz bajarilishini ta'minlash;

- O'zbekistonda pensiyalarning o'rtacha miqdorini o'rtacha ish haqiga nisbatan 41 foizga yetkazish;

- iqtisodiyotimizning 2014 yilga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo'nalishlari avvalo bu sohaning yuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirish;

- yalpi ichki mahsulot hajmini 8,1 foizga, sanoatni 8,3 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, chakana savdo aylanmasini 13,9 foizga ko'paytirish, bozor xizmatlarini 16,2 foizga oshirgan holda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga yetkazish;

- yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish;

- asosiy kapitalga kiritiladigan investisiyalar hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2013 yilgi 23 foiz darajasida saqlab qolish;

- barcha investisiyalarning 73 foizdan ortig'i ishlab chiqarish obyektlarini barpo etishga, kapital qo'yilmalarning qariyb 40 foizi mashina va uskunalarni sotib olishga yo'naltirish;

- ular qatorida «Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ishlab chiqarish quvvatini 200 ming tonnadan 600 ming tonnaga oshirish» bo'yicha va boshqa muhim loyihalarni nihoyasiga yetkazish mo'ljallanmoqda.

XULOSA.

1. Kuzgi – qishgi mavsumda o'rganilayotgan pomidor duragaylarining vegetasiya davri davomiyligiga turli ekish sxemalarida yetishtirishning ta'siri o'rganilganda natijalar shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan duragaylarda qo'chat ekilgandan pishishgacha bo'lgan davr o'rtacha 67,2 – 101,5 kunni tashkil etdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, turli ekish sxemalarida yetishtirishning o'simliklarning vegetasiya davri davomiyligiga ta'siri kuzatilmadi.

2. O'simliklarning barg to'plash va o'sish dinamikasiga turli ekish sxemalarining ta'siri o'rganilganda bu ko'rsatkichlarga ekish sxemalarining sezilardi ta'siri kuzatildi. Oziqa maydonining kamayishi natijasida 1 m² maydonga ekilgan o'simliklar soni oshdi, bu esa navbatida o'simlikka quyosh nurlarining tushishini va oziqaning teng va yetarli taqsimlanishini qiyinlashtirdi. Buning natijasida o'simliklar bo'yining o'sib ketishi, shu bilan birga bo'g'in orasining kattaligi tufayli barglar sonining kamayishi kuzatildi.

3. Ayniqsa 80 x30 sm ekish sxemasida o'simliklar bo'yining o'sib ketishi kuzatildi. Masalan, F₁ Verlioka duragayida bu ko'rsatkich o'simlik 75 kunlik davrida 198 sm ko'rsatgan bo'lsa, 80 x 50 sm ekish sxemasida 172 sm bo'ldi. Barglar soni nisbatan 25 va 31 donani tashkil qildi. F₁Modul duragayida bu ko'rsatkich 80 x30 sm ekish sxemasida 154 sm ni tashkil qilgan bo'lsa, 80 x 50 sm ekish sxemasida 138 sm bo'ldi. Barglar soni nisbatan 23 va 26 donani tashkil qildi.

4. O'rganilgan duragaylarda umumiy yuqori hosil 80 x 50 sm ekish sxemalarida (12,0 dan 18,0 m² gacha) kuzatildi. Bu esa o'rganilgan nazoratga nisbatan 1,1 – 1,9 kg/m² ni tashkil qildi. Eng past hosildorlik barcha duragaylarda 80 x30 sm 2 ekish sxemalarida kuzatildi.

5. Tovar maxsulot chiqimininig yuqoriligi bilan 80 x 50 va 80 x 60 sm ekish sxemalari (94 – 96%) ajralib turdi.

Tajribalarda Modul F_1 duragayi uchun 80 x 60 sm ekish sxemasida tovar chiqimining yuqoriligi (96%) va hosildorlikning nisbatan pastligi ($11,5 \text{ kg /m}^2$) kuzatildi. Verlioka F_1 duragayida esa nazoratga nisbatan 80 x 50 sm ekish sxemasida tovar chiqimida sezilarli farq kuzatilmadi (94 -95%).

6. Mevalarning o'rtacha vazni barcha o'rganilgan duragaylarda 80 x 60 sm ekish sxemasida yuqoriligi kuzatildi. Bu ko'rsatkich shu ekish sxemasida Modul F_1 duragayida 148 g ni, 80 x 30 sm ekish sxemasida esa 132 g ni tashkil qildi. Verlioka F_1 duragayida esa bu ko'rsatkich nisbatan 112,2 g va 95 g bo'lganligi kuzatildi.

7. 80 x 50 va 80 x 60 sm ekish sxemalarida ekkanda tovar chiqimining yuqori bo'lishi, 80 x 50 sm ekish sxemasida ekkanda hosildorlikning yuqori bo'lishi oziqa maydoniga o'simlikni to'g'ri taqsimlash maxsuldorlikni, maxsulot sifatini va shu bilan birga hosildorlikni oshirishga olib kelishini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir».- Toshkent: «O'zbekiston», 2010 y.- B. 65.
